JIZZAX VILOYATI FORISH TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 4-noyabr | 210-3-53-Q/24 | Forish tuman hokimligi

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ 642-son) ning 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlari”ga asosan Forish tuman hududidagi korxona va tashkilotlarda 2025-yil mobaynida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ 642-sonli “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasiga muvofiq, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risidagi Qonuniga asosan, tashkilotlarning ro‘yxatdagi xodimlari o‘rtacha soni yigirma nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 7 foiz miqdorigacha, (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) **jami 76 ta** ish o‘rinlarini zaxiralash 1-ilovaga va maxsus komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasiga asosan, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash uchun korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirilgan shaxslarni ish o‘rinlari 2025-yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

a) 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali, ota-onalar uchun 7 foiz (37 kishi);

b) Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, ta’lim tashkilotlarini kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 7 foiz (29 kishi);

v) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 7 foiz (3 kishi);

g) nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 foiz (2 kishi);

d) pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 3 foiz (2 kishi);

e) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun, 7 foiz (3 kishi);

3. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4. Korxona, tashkilot va muassasa rahbarlari yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishini ta’minlansin.

5. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi birinchi chorak yakuni bilan 10 kun ichida xabardor qilinsin;

Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5 sanasigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklshish bo‘limiga Nizomning 5-ilovasidagi shaklga muvofiq ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etib borilsin.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqqining 2 baravari miqdorida haq to‘lansin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi mazkur qaror kuchga kirgandan so‘ng 2024-yilning 15-noyabridan kech bo‘lmagan muddatda tashkilotlarning e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida nashr qilinsin hamda Forish tumani hokimligining www.forish.jizzax.uz − rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023 yil 20 oktyabrdagi 220-3-53-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qolsin deb hisoblansin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Uzoqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.S.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2024-yil 4-noyabrdagi
210-3-53-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Forish tumani bo'yicha 2025 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlariga ishga joylashtirish bo'yicha
MANZILLI JADVAL

T/R	Tuman nomi	Topshiriq belgilangan korxona nomi	INN raqami Korxonani	korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o'rinlari soni	shu jumladan:							
						14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar; «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatdan bo'shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o'tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburiy choralari qo'llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchu (20.03.1997 yil VM.153-son qarori)
1	Forish t	"FORISH TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200340600	125	2	1					1		
2	Forish t	"FORISH TUMANI SPORT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207123398	37	1		1						
3	Forish t	MUASSASASI	200340459	68	2	1		1					
4	Forish t	"FORISH DAVLAT O'RMON-OVCHILIK XO'JALIGI" DAVLAT MUASSASASI	207316022	45	1	1							
5	Forish t	FORISN TUMANI 1-SONLI "G'UNCHA" NOMLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	207004054	66	1	1							
6	Forish t	FORISH TUMANI 2-SONLI "BINAFSHA" NOMLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	207030395	37	1	1							
7	Forish t	FORISH TUMANI 3-SONLI "BOYCHECHAK" NOMLI MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI	207061681	65	1	1							
8	Forish t	FORISH TUMANI 4-SONLI "GULDASTA" NOMLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	207046003	54	1	1							
9	Forish t	Forish tumani 5-sonli "LOLA" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	207046478	34	1	1							
10	Forish t	Forish tumani 9-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi	306455821	51	1	1							
11	Forish t	Forish tumani 10-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi	306455860	32	1	1							
12	Forish t	Forish tuman 11-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	308382761	27	1	1							
13	Forish t	Forish tumani 12-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi	207298157	38	1	1							
14	Forish t	Forish tumani 13-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi	207298520	26	1	1							
15	Forish t	Forish tumani 14-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	307801460	24	1	1							
16	Forish t	Forish tumani 15-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	308212884	23	1	1							
17	Forish t	Forish tuman 17-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	307793758	40	1	1							
18	Forish t	"FORISH TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI" DAVLAT MUASSASASI	200341496	1219	9	3	2	1	1	1	1		
19	Forish t	"FORISH TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	206943329	222	5	1	1	1	1		1		
20	Forish t	FORISH TUMAN SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO`LIMI	200340387	54	2	1				1			
21	Forish t	"FORISH TUMAN VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BO`LIMI" DAVLAT MUASSASASI	200341694	27	1	1							
22	Forish t	FORISH TUMAN 1-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203176604	75	2	1	1						
23	Forish t	FORISH TUMANI 2-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878091	50	1	1							
24	Forish t	FORISH TUMANI 3-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	200341512	46	1		1						
25	Forish t	FORISH TUMANI 4-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878109	37	1	1							
26	Forish t	FORISH TUMANI 5-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878116	49	1		1						
27	Forish t	FORISH TUMANI 6-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878124	38	1	1							
28	Forish t	FORISH TUMANI 7-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878131	61	1	1							
29	Forish t	FORISH TUMANI 8-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878148	53	1	1							
30	Forish t	FORISH TUMANI 10-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878155	59	1	1							
31	Forish t	FORISH TUMANI 12-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878170	53	1	1							
32	Forish t	FORISH TUMANI 15-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878203	66	1	1							
33	Forish t	FORISH TUMANI 16-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878210	53	1		1						
34	Forish t	FORISH TUMANI 17-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878227	40	1		1						
35	Forish t	FORISH TUMANI 20-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878259	66	1	1							
36	Forish t	FORISH TUMANI 21-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206883704	42	1		1						
37	Forish t	FORISH TUMANI 22-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878266	33	1		1						
38	Forish t	FORISH TUMANI 23-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878274	26	1		1						
39	Forish t	FORISH TUMANI 25-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878298	44	1		1						
40	Forish t	FORISH TUMANI 26-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878306	35	1		1						
41	Forish t	FORISH TUMANI 27-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878314	35	1		1						
42	Forish t	FORISH TUMANI 29-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878338	43	1		1						
43	Forish t	FORISH TUMANI 30-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878345	48	1		1						
44	Forish t	FORISH TUMAN 33-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203175503	80	2	1	1						
45	Forish t	FORISH TUMANI 46-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878449	46	1		1						
46	Forish t	FORISH TUMANI 47-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878456	33	1		1						
47	Forish t	FORISH TUMANI 51-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878488	31	1		1						
48	Forish t	FORISH TUMANI 55-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878528	52	1	1							
49	Forish t	FORISH TUMANI 56-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878535	29	1		1						
50	Forish t	FORISH TUMANI 68-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878639	43	1	1							
51	Forish t	FORISH TUMANI 70-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878654	46	1		1						
52	Forish t	FORISH TUMANI 71-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878661	41	1		1						
53	Forish t	FORISH TUMANI 72-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878678	48	1		1						
54	Forish t	FORISH TUMANI 73-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878685	33	1		1						
55	Forish t	FORISH TUMANI 75-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878701	32	1		1						
56	Forish t	FORISH TUMANI 76-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878718	32	1		1						
57	Forish t	FORISH TUMANI 77-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM	206878725	41	1		1						
58	Forish t	FORISH TUMANI 78-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878733	47	1	1							
59	Forish t	FORISH TUMANI 79-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206878582	41	1	1							
		Жами:	x	**4041**	**76**	**37**	**29**	**3**	**2**	**2**	**3**		

Страница 1

Forish tuman hokimining
2024-yil 4-noyabrdagi
210-3-53-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tuman hududida joylashgan korxona, tashkilot va muassasalarda 2025-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo‘lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish bo‘yicha maxsus komissiyasi

Tarkibi:

1. **Sh.Uzoqov** - Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Komissiya raisi
2. **F.Karimov** - Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, Komissiya raisi o‘rinbosari
3. **T. Qo‘narov** - Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i, Komissiya a’zosi
4. **S.Hafizov** - Soliq inspektsiyasi boshlig‘i, Komissiya a’zosi
5. **J.Jalilov** - Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha bek ofis bosh mutaxassis, Komissiya kotibi.